

ZAMONAVIY O'QUVCHIDA METAKOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada XXI asrda o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishida metakompetensiyalarning – ya'ni tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik, o'zini boshqarish, jamoaviy ishlash va axloqiy tanlov ko'nikmalarining ahamiyati yoritiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyalashuvi asosida ushbu metakompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, xalqaro va milliy tajribalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: metakompetensiyalar, integratsiyalashgan ta'limga, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy-emotsional tarbiya, axloqiy qaror, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlar

Bugungi ta'limga shunchaki fanga oid bilimlarni egallash emas, balki o'quvchini shaxs sifatida mustahkamlash, uni jamiyatdagi murakkab, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchan, ongli qaror qabul qiluvchi va ijtimoiy faol fuqaroga aylantirishni ko'zda tutadi. Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogikada “**metakompetensiyalar**” atamasi keng qo'llanilmoqda.

Metakompetensiyalar – bu o'quvchining mustaqil fikrashi, o'zini anglash va boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarda ijobiy muloqotga kirishish, emotsiyalarni boshqarish, turli madaniyatlarni tushunish kabi yuqori darajadagi kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalar majmuasidir.

Dunyo ta'limga konsepsiyaning (masalan, **OECD Learning Compass 2030**, **UNESCO Global Citizenship Education, P21**), bu kompetensiyalar markaziy o'rinda turadi. O'zbekistonning **Milliy tarbiya konsepsiyasida** esa bunday ko'nikmalarni shakllantirish **axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va ijtimoiy faol fuqarolik** mezonlariga asoslangan.

Ushbu maqolada metakompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta'limga (bilim va ko'nikmalar) hamda tarbiya (qadriyat va xulq)ning integratsiyalashgan metodikasi ishlab chiqiladi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- **Nazariy tahlil:** xalqaro (OECD, UNESCO, P21) va milliy (Milliy tarbiya konsepsiysi, DARS, DTS) hujjatlar solishtirildi.

- **Pedagogik kuzatuv:** 6–9-sinflarda tashkil etilgan dars va tarbiya mashg'ulotlari tahlil qilindi.

• **So'rovnama:** 85 nafar o'qituvchi va 140 nafar o'quvchidan metakompetensiyalarga oid ko'nikmalar bo'yicha fikrlar olindi.

• **Diagnostika vositalari:** O'quvchilarning muammoli vaziyatlarga bo'lgan qarashlari, ijtimoiy-axloqiy tanlovi, emotsiyal barqarorlik darajasi baholandi.

O'quvchilar metakompetensiyalarning quyidagi turlarida sezilarli o'sishga erishdi: **jamoada ishslash (28% o'sish)**, **emosional boshqaruv (22%)**, **tanqidiy fikrash (26%)**.

Eng samarali metodlar qatorida: **rol o'ynash**, **CASE-metod**, **loyiha ishlari**, **bahs-munozaralar**, **empatiya mashqlari** aniqlangan.

Tarbiya mashg'ulotlariga zamonaviy metodikalar integratsiya qilinishi o'quvchilarda axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirdi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, **padlet**, **flipgrid**, **kahoot**, emotsiyal holatni ifoda etuvchi vizual vositalar metakompetensiyalarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Metakompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim va tarbiya alohida emas, balki bir butun integratsiyalashgan pedagogik tizimda ishlashi kerak. O'quvchi darsda tanqidiy fikrashni o'rghanar ekan, shu bilan birga axloqiy mezonlar asosida ijtimoiy tanlov qilishga ham o'rgatilmog'i lozim.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya – bu o'quvchining shaxsiy e'tiqodi, ijtimoiy mas'uliyati, madaniy ongini mustahkamlovchi resursdir. Xalqaro konsepsiyalardagi "ijtimoiy-emotsional o'rghanish" (SEL) tamoyillari bilan bu yondashuv uyg'unlashganda, real hayotga tayyor bo'lgan, ma'naviy barkamol shaxs shakllanishiga erishiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metakompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchining **shaxsiy tajribasini muhokama qilishga yo'naltirilgan yondashuvlar** ayniqsa samaralidir. Bunda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarga nisbatan **axloqiy**, **ijtimoiy** va **emosional javob qaytarishga** o'rghanadilar. Bu esa ularning o'z fikrini erkin bildirish, boshqalarning nuqtai nazarini tushunish va hurmat qilish kabi ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, darslarda faqatgina faktlarni yod olishga emas, balki **savol berishga**, **izlanishga**, **muqobil yechimlarni topishga undovchi metodlar** (masalan, debatlar, "fikrlar ko'prigi", SWOT-tahlil) metakompetensiyalar rivojida muhim o'rin egallaydi. Bu metodlar o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol fikrlovchiga aylantiradi.

Milliy tarbiya konsepsiyasidagi "**avlodlar uzviyligi**, **tarixiy xotira**, **axloqiy me'yorlar**" kabi tushunchalarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchayadi. Masalan, tarix fanida mustaqillik yo'lidagi fidokorlar faoliyati haqida bahs olib borish, adabiyotda qahramonlar axloqiy tanlovinini muhokama qilish orqali o'quvchilarning **axloqiy fikrashi** faol rivojlanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu jarayonda qo'shimcha quvvat vazifasini bajaradi. Xususan, o'quvchilar padlet, Google Forms, Canva, Jamboard kabi

vositalar yordamida o‘z fikrlarini ifodalaydilar, jamoaviy ishlarni mustaqil tashkil qiladilar. Shu tarzda metakompetensiyalar o‘quvchining nafaqat darsda, balki kundalik hayotda ham faol ishtirokchi bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida metakompetensiyalarni baholash bo‘yicha **aniq mezonlarning yetishmasligi, o‘qituvchilarining bu boradagi bilim va ko‘nikmalarining turlicha bo‘lishi, darsliklar mazmunining ko‘proq faktlarga yo‘naltirilganligi** kabi muammolar ham mavjud. Bu esa metodik tizimni takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

- XXI asrda o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida **metakompetensiyalar yetakchi rol o‘ynaydi.**

- Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun **ta’lim va tarbiya jarayonlarini birlashtirish**, ularni metodik jihatdan integratsiya qilish muhim.

- Interaktiv, hayotiy, muammoli vaziyatlarga asoslangan metodlar bu kompetensiyalarni rivojlantirishga ijobjiy ta’sir qiladi.

- O‘qituvchilar bu borada maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi, ta’lim vositalari esa kompetensiyaviy mezonlarga mos bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. (2020). *The OECD Learning Compass 2030: A framework for learning in the 21st century*.
2. UNESCO. (2021). *Global Citizenship Education: Topics and learning objectives*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2019). *Milliy tarbiya konsepsiysi to‘g‘risida*.
4. CASEL. (2017). *Core SEL Competencies*. [<https://casel.org>]
5. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*.
6. Bekmurodov, T., & Kadirova, M. (2022). *O‘zbek maktablarida metakompetensiyalarni shakllantirish masalalari*. *Pedagogik izlanishlar*, 5(1), 54–62.